



**XALQARO NORDIK UNIVERSITETINING
2025-2030 YILLAR DAVOMIDA TA'LIM
TASHKILOTINI RIVOJLANTIRISH
BO'YICHA STRATEGIK

KONSEPTSIYASI**

Toshkent – 2025

Xalqaro Nordik universiteti O'zbekiston va Finlandiya tashqi ishlar vazirlarining siyosiy maslahatlashuvlar bo'yicha 10-yig'ilishida Shimoliy Yevropa mamlakatlarining ta'lim sohasidagi ilg'or tajribasiga tayangan holda universitet tashkil etish yuzasidan erishilgan kelishuv asosida **2022-yil 8-avgustda №034528-sonli litsenziya** asosida faoliyatini boshlagan nodavlat oliy ta'lim muassasasidir.

Boshqaruv tizimi zamonaviy oliy ta'lim muassasalaridagi eng yaxshi amaliyotlarga asoslangan bo'lib, quyidagi boshqaruv tuzilmasi va erarxiyasi asosida faoliyat olib bormoqda:

- **Boshqaruv kengashi**
- **Rektor**
- **Prorektorlar**
- **Dekanatlar**
- **Kafedralar**
- **Departamentlar, bo'limlar**
- **Markazlar va laboratoriyalar**

Hozirda jami **192 nafar xodim** faoliyat yuritib, administratsiya va boshqaruvda **24 nafar**, professor-o'qituvchilar **87 nafarni** tashkil etib, **ilmiy salohiyat esa 42,6 %** tashkil etadi.

Ilmiy faoliyat yo'nalishlari

1. Raqamli iqtisodiyot va zamonaviy iqtisodiy rivojlanish muammolari
2. Pedagogika va psixologiyada raqamli texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish muammolari
3. Musiqa ta'limi nazariyasi va amaliyotidagi dolzarb masalalar
4. Tilshunoslik va til ta'limi nazariyasi, amaliyoti masalalari
5. Zamonaviy jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya jarayonlari

Ilmiy faoliyat shakllari va mexanizmlari

- Loyihalar va grantlar
- Konferensiyalar va seminarlar
- Ilmiy nashrlar
- Talabalar va doktorantlar ilmiy faoliyati
- Innovatsion laboratoriyalar va markazlar tashkil etish
- Ilmiy kengashlar sonini oshirish va faoliyatini samarali tashkil etish

Universitetda **2** ta fakultet va **8** ta kafedra mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

1. Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti

- Pedagogika kafedrasi
- Psixologiya va maktabgacha ta'lim kafedrasi
- Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalar kafedrasi
- Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi
- Chet tillari kafedrasi mudiri
- Iqtisodiyot va biznesni boshqarish kafedrasi
- Ijtimoiy fanlar va jurnalistika kafedrasi

- Musiqa ta'limi kafedrası

2. Magistratura fakulteti

- Pedagogika kafedrası
- Psixologiya va maktabgacha ta'lim kafedrası
- Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalar kafedrası
- Xorijiy til va adabiyoti kafedrası
- Iqtisodiyot va biznesni boshqarish kafedrası
- Ijtimoiy fanlar va jurnalistika kafedrası
- Musiqa ta'limi kafedrası

Qabul parametrlari - XNUga kiruvchilar uchun belgilangan talab va mezonlar majmuasidir. Har bir o'quv yili boshida universitet tomonidan tasdiqlangan qabul parametrlari asosida abituriyentlar hujjat topshiradilar va saralash bosqichlaridan o'tadilar.

2025–2026 o'quv yilida quyidagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha qabul tashkil etildi:

16 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlari

1	Maktabgacha ta'lim
2	Boshlang'ich ta'lim
3	Musiqa ta'limi
4	Maxsus pedagogika
5	Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili
6	Tarix
7	Psixologiya
8	Jurnalistika
9	Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
10	Moliya va moliyaviy texnologiyalar
11	Iqtisodiyot
12	Biznesni boshqarish
13	Amaliy matematika
14	Kompyuter injiniringi
15	Sanoat muhandisligi va menejmenti
16	Turizm va mehmondo'stlik

14 ta magistratura mutaxassisligi

1	Pedagogika
2	Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)
3	Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)
4	Musiqa ta'limi va san'at
5	Xorijiy til va adabiyoti
6	Psixologiya
7	Jurnalistika

8	Iqtisodiyot
9	Jahon iqtisodiyoti
10	Amaliy matematika
11	Kompyuter injiniringi
12	Ma'lumotlar ilmi (Data science)
13	Turizm va mehmondo'stlik

11 ta doktorantura ixtisosligi

1	08.00.03	Sanoat iqtisodiyoti
2	08.00.07	Moliya, pul muomalasi va kredit
3	08.00.13	Menejment
4	13.00.01	Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
5	13.00.02	Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
6	13.00.07	Ta'limda menejment

9 ta xalqaro qo'shma ta'lim dasturlari

1	60411100	– Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
2	60410500	– Moliya va moliyaviy texnologiyalar
3	60410100	– Iqtisodiyot
4	60410900	– Biznesni boshqarish
5	60540200	– Amaliy matematika
6	60610300	– Kompyuter injiniringi
7	60712200	– Sanoat muhandisligi va menejmenti
8	70610301	– Kompyuter injiniringi
9	70610304	– Ma'lumotlar ilmi (Data science)

Ta'lim tili o'zbek, rus va ingliz tillarida amalga oshiriladi.

1. Kirish imtihonlari

- **Barcha yo'nalishlarda:** 30 ta savol, birinchi fan uchun har bir savolga 6,8 ball, ikkinchi fan uchun 5,8 ball, jami 189 ball. O'tish ballining minimal miqdori 56,7 ballni tashkil etadi.

- **Musiqa va jurnalistika yo'nalishlari:** ijodiy va amaliy imtihonlar 189 ballgacha baholangan.

- **Magistratura:** mutaxassislik bo'yicha ijodiy/test orqali qabul qilinadi. 25 ta savol 4 ball, jami 100 ball, ijodiy va amaliy imtihonlar 100 ball.

2. Imtiyozlar va qo'shimcha ballar

- til sertifikatini, fan olimpiadasi g'olibi yoki sport chempionlari qo'shimcha ball oladi.

3. Grantlar va stipendiyalar

- 2025–2026 o'quv yili uchun 1 milliardlik umumiy grant ajratilgan: 40 ta 1-kurslar va 60 ta 2-4-kurslar uchun.

- Grant turlari: 10%, dan 100% gach grantlar mavjud.
- Abituriyentlar grant olishi uchun testdan kamida 130 ball olishlari va suhbatdan muvaffaqiyatli o'tishlari lozim.
- Rektor stipendiyasi mavjud bo'lib, miqdori 500 000 so'mdan 1000 000 so'mni tashkil etadi.

4. AQSH / Finlandiya bilan qo'shma ta'lim dasturi

- 1+3 / 2+2 / 3+1 (bakalavriat): IELTS 5.5 yoki boshqa tenglashtirilgan sertifikat
- 1+1 (magistratura): diplom + IELTS 5.5 yoki boshqa tenglashtirilgan sertifikat.
- AQSHda o'qishni davom ettirish uchun kursni muvaffaqiyatli tugatgan hamda IELTS 6.0 sertifikatini qo'lga kiritgan talabalar yuboriladi.

Ta'lim sifatini ta'minlash tizimi va vositalari

Ta'lim sifati – bu o'quv jarayonining samaradorligi, talabalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini egallash darajasi hamda bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydigan asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Ta'lim sifatini ta'minlash uzluksiz monitoring, nazorat, baholash va rivojlantirish tizimini talab etadi.

Ta'lim sifatini ta'minlash tizimi

Ta'lim sifatini ta'minlash tizimi quyidagi asosiy elementlardan iborat:

1. Ichki sifat nazorati

Universitetda "Ta'lim sifatini nazorat qilish" bo'limi tashkil etilgach bo'lib, dars jarayonlari to'liq onlayn va oflayn tarzda tahlil qilib boriladi. Xususan, quyidagi mezonlar asosida nazorat amalga oshiriladi:

- fan sillabuslarining muntazam tahlili va yangilanishi;
- o'quv jarayonining nazorat qilinishi (topshiriqlar, testlar, reyting tizimi va boshqalar);
- talabalardan olingan anketa-so'rovnomalari asosida ta'lim sifatini takomillashtirilishi.

Ta'lim sifatini ta'minlash vositalari

Ta'lim sifatini oshirish va nazorat qilishda quyidagi vositalar qo'llaniladi:

- **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari** – elektron jurnal, masofaviy ta'lim platformalari (LMS), test tizimlari, analitik dasturlar, ichki platforma. SI va dasturlar
- **Baholash vositalari** – oraliq nazorat uchun savol va topshiriqlar, yakuniy nazorat uchun yozma savol variantlari va testlar
- **Mutaxassislarni tayyorlash standartlari** – malaka talablariga muvofiq ishlab chiqilgan o'quv rejalari va fan dasturlari.
- **Aloqa tizimi** – talabalar, ota-onalar, ish beruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlardan muntazam fikrlar olinadi, ular tahlil etiladi va qarorlar qabul qilinadi.

Ta'lim sifatini ta'minlash – bu faqat nazorat yoki baholash emas, balki butun o'quv jarayonini uzluksiz rivojlantirib borishdir. Sifat ta'minoti tizimining uzviy ishlashi, ilg'or texnologiyalar va zamonaviy baholash vositalarining qo'llanilishi orqali ta'lim tizimi yanada samarali va raqobatbardosh bo'lishiga xizmat qiladi.

To'lov-kontrakt miqdori va uning hisob-kitobi

To'lov-kontrakt – bu talabani Universitetda tahsil olishi uchun belgilangan pul mablag'larini to'lash orqali ta'lim olish shaklidir. Kontrakt to'lovlari quyidagi omillarga bog'liq ravishda belgilanadi:

- Ta'lim shakli (kunduzgi, sirtqi, masofaviy);
- Yo'nalishning turi va mutaxassislik darajasi (bakalavriat, magistratura);

Kontrakt to'lovining tartibi

1. **Yillik kontrakt summasi** har yili universitet tomonidan tasdiqlanadi va rasmiy e'lon qilinadi. Universitetda kontrakt to'lovlari 11 000 000 (o'n bir million) so'mdan 22 000 000 (yigirma ikki million) so'mgacha belgilangan.

2. **To'lovni amalga oshirish** bosqichma-bosqich yoki to'liq yil boshida amalga oshirilishi mumkin. Semestr va oylik to'lovi asosida amalga oshirilishi mumkin.

3. **To'lov shakllari:** to'lovlar bank orqali, onlayn to'lov tizimlari orqali yoki mobil ilovalar yordamida amalga oshiriladi.

Imtiyozlar va to'lovni kamaytirish imkoniyatlari

Ayrim toifadagi talabalar uchun kontrakt summasini kamaytirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatlari mavjud. Jumladan:

- Ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan oilalarning farzandlari uchun universitet tomonidan moddiy yordam ajratiladi.
- Yuqori natijalarga erishgan talabalar uchun ichki stipendiyalar yoki homiylik yordamlari berilishi mumkin.

Ta'lim tashkilotini rivojlantirish bo'yicha besh yillik strategik konsepsiya

Ta'lim – har qanday jamiyat taraqqiyotining negizi, inson kapitalining eng muhim manbaidir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda.

Mazkur konsepsiya **2026-2030-yillar** davomida ta'lim tashkilotini rivojlantirish bo'yicha strategik yo'nalishlar, maqsadlar va ustuvor vazifalarni belgilab beradi. Unda zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan, raqobatbardosh, ochiq va samarali ta'lim muhitini yaratish asosiy maqsad qilib olingan.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sifatini oshirishga, raqamli iqtisodiyotga o'tish va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan qaror va farmonlarida yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. **Shundan kelib chiqib, xalqaro tajribaga tayangan holda yangi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarni ochish – ilmiy va amaliy jihatdan zarur strategik qadam hisoblanadi.**

Bundan kelib chiqadiki, mehnat bozorida raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi, amaliy ko'nikmalarga ega kadrlarni tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, mehnat bozorida mavjud ehtiyojlarni chuqur o'rganish asosida zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochish, ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, shuningdek, **ta'lim–fan–ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish har bir oliy ta'lim tashkilotining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.**

Mazkur tashabbus orqali o'quv dasturlari xalqaro va milliy standartlarga muvofiq, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilg'or pedagogik

texnologiyalar keng joriy etiladi. Shuningdek, ilmiy salohiyatli professor-o'qituvchilarni jalb etish, ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash, xorijiy tajribaga ega mutaxassislar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali ta'lim jarayonining ilmiy-amaliy yo'nalishini mustahkamlashga erishiladi. **Bu esa, o'z navbatida, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va mehnat bozorining zamonaviy talablariga javob beruvchi mutaxassislarni yetishtirish imkonini beradi.**

Strategik maqsad. Universitetni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ilg'or pedagogik yondashuvlar va sifat menejmenti tamoyillari asosida rivojlantirish, ilm-fan bilan integratsiyalashgan, raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim dargohiga aylantirish.

Bugungi kunda sifatli ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. O'zbekiston sharoitida zamonaviy, xalqaro standartlarga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Shu sababli, zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va shakllarini ochish, ularni samarali boshqarish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Mahalliy aholiga yuqori sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish ijtimoiy farovonlikni oshirishga, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

2030-yilgacha ishlab chiqilgan strategiyada ta'lim klasterini tashkil etish, Universitetni xalqaro global reytinglarda ishtirokini ta'minlash (QS, THE, ARWU), Universitet qoshida xalqaro maktab faoliyatini rivojlantirish, muhandislik yo'nalishlarini ochish, ularga xizmat qiladigan maxsus laboratoriyalarni tashkil etish orqali ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, rivojlangan mamlakatlarning nufuzli oliy ta'lim tashkilotlari bilan qo'shma dasturlar, ilmiy loyihalarni amalga oshirish maqsad qilingan.

Mazkur yondashuv ijtimoiy farovonlikni oshirish va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Shularni e'tiborga olgan holda, Universitetni xalqaro miqyosda tan olinishini ta'minlash, xorijiy talabalar ulushini oshirish, ta'lim eksporti imkoniyatlarini kengaytirish, investitsiyalarni jalb etish bilan bog'liq harakatlar boshlab yuborilgan.

Xorijiy tillarda dars mashg'ulotlarini olib borish: talabalarga chet tillarida ta'lim xizmatlari ko'rsatilib kelinmoqda (ingliz tili, rus tili va boshqa tillarda).

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish: xorijiy universitetlar, ilmiy tadqiqot institutlari, xalqaro tashkilotlar bilan memorandumlar, qo'shma dasturlar va almashinuv loyihalari amalga oshirilmoqda.

Marketing va kommunikatsiya strategiyasini shakllantirish: xalqaro ta'lim forumlari va ko'rgazmalarida faol targ'ibot ishlari, Universitet brendini shakllantirishga qaratilgan reklama roliklari, prospektlar, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar, davra suhbatlari, xalqaro olimpiadalar va intellektual musobaqalar tashkil etish.

Qo'shimcha qulayliklar: xorijiy talabalar uchun yashash joyi, konsullik va immigratsiya xizmatlarini ko'rsatishi, madaniy va ijtimoiy moslashuvni ta'minlash, talabalarning noakademik faoliyatini samarali tashkil etish.

Xalqaro darajali diplom: bitiruvchilarimiz O'zbekiston va Yevropada tan olinadigan diplomga ega bo'lishadi.

Double degree dasturlari: universitetda Finlandiyaning Kareliya amaliy fanlar universiteti va AQShning Rovaniemi universiteti, Lourens texnologiyalar universiteti, Janubiy Koreyaning Degu universiteti, Malayziyaning Utara universiteti bilan **double va joint degree, talabalar almashinuvi** dasturlari bo'yicha o'qish imkoniyati mavjud.

Work & Travel (Ishlash va sayohat dasturi): universitet talabalarga yoz oylarida Yevropada ishlab, kontrakt uchun pul topish imkoniyati yaratilgan.

Odoo biznes-model: barcha talaba va xodimlar uchun ochiq manba kodli kurslarni joriy etish, Data Science va Kompyuter injiniringi magistratura talabalari ishlarini amaliyotga tatbiq etishda IT hamjamiyati rahbariyati bilan hamkorlik qilish hamda o'quv yili yakuniga qadar 5 ta fan bo'yicha mobil ilova ishlab chiqish.

Malakali professor-o'qituvchilar: zamonaviy va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish maqsadida xorijiy tillarni mukammal biluvchi mutaxassislar keng jalb etilmoqda.